

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DIDAKTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Gulnoza Bazarovna Shertaylakova

JDPU

mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8296414>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarining didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati hamda bo'lajak o'qituvchilarning didaktik madaniyatini rivojlantirish maqsadlarini belgilash, o'quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan o'quv mazmuni, usullari va vositalarini aniqlash, shuningdek o'quv jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyati natijasi rivojlantirish texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.

**Katil so'zlar:** didaktik ta'lim, didaktik harakat, didaktik tamoyillar, didaktik qobiliyat, kasbiy madaniyat, kompleks shakllantirish, innovatsion didaktik fikrlash, ijodiy didaktik faoliyat, umumiy madaniy kompetensiyalar.

Jahonda har bir davlatning taraqqiy etishida, uning o'z ertasini belgilash, ta'lim-tarbiya tizimini davlat miqyosidagi eng muhim vazifalardan biri deb qarash, imkoniyatlarini kengaytirish dunyo miqyosidagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lil kelmoqda. Bu esa keying paytlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan ilmiy tadqiqodlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darxaqiqat, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislarni, xususan, pedagog o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini va didaktik bilim va madaniyatga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki madaniy an'analar va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashni va qobiliyatlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishning qonuniy asoslari shakllantirilmoqda<sup>1</sup>. Shu asosda, tarix fani o'qituvchilarining ushbu vazifalarni bajarish uchun ularning pedagogik mahoratini, kasbiy kompetentligini va didaktik madaniyatini rovojlantirish samaradorligini oshirish boyicha tizimli harakatlar amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'jallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/13/0330-son.

<sup>2</sup> М.П.Тырина. Структура и функция дидактической культуры педагога./М.П.Тырина// Образования и общество.- 2007-№ 4.- С.148-152

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri talabalarning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risidagi bilimlarni boyitadi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Didaktik madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida o'rganiladi, biz o'qituvchining didaktik madaniyatini turli xil tarkibiy qismlarini: didaktik qadriyatlar, bilim, kompetentsiyasi, fikrlash, xulq-atvor, mahorat, jamiyatning mavjud rivojlanish darajasiga asoslangan kasbiy ta'lim, qadriyatlar tizimi, shaxsiy fazilatlar bilan shartlangan shaxsning integral sifati shaklida ifodalaymiz.

Didaktik madaniyatning kasbiy komponenti katta ahamiyat kasb etadi, bu o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish qonuniyatlarini amalga oshirish qobiliyatini va ta'lim jarayonida talabalarning quyidagi kompetentsiya turlarini:

- o'qituvchining ta'lim faoliyatida qadriyatlarga asoslangan didaktik harakat yonalishi, uning kompetensiyalri to'plami (pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash) sohasida;
- talabalarni ta'limiy (tarbiyaviy) faoliyatini amalga oshirishga motivatsiyalsh sohasida;
- faoliyatning axborot asoslarini ta'minlash sohasida;
- faoliyat dasturlarini ishlab chiqish, uslubiy, didaktik materiallar va pedagogik qarorlar qabul qilish sohasida;
- o'qituvchining kasbiy faoliyatida didaktik qobiliyat va zamonaviy didaktik tamoyillarni shakllantirishni belgilaydi<sup>3</sup>.

Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy rivojlanishning har bir yangi bosqichida o'qitishning maqsadi, mazmuni va usullari jamiyat tomonidan qo'yilgan talablarga muvofiq o'zgaradi. Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida kasbiy ahamiyatga ega va talab qilinadigan pedagogik fazilatlarga ega bo'lish sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Buni o'qituvchilar, ota-onalar, ta'lim oluvchilarning kasbiy hamda ta'lim standartlarida ham ko'rish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi o'qituvchining kasbiy madaniyatini va uning asosiy tarkibiy qismlaridan - didaktik madaniyatni rivojlantirishni, uning tuzilishi va shakllanish jarayoniga zamonaviy talablarni ishlab chiqishni talab qiladi.

O'qituvchining didaktik madaniyati-bu shaxsning ajralmas sifati bo'lib, u aksiologik, faoliyat, kommunikativ va subyektiv-samarali komponentlarning birligi bilan ifodalanadi, ular o'zaro ta'sirida o'qituvchining samarali didaktik faoliyati va ijodiy o'zini o'zi anglashini ta'minlaydi.

Ijodiy didaktik faoliyatda bo'lajak o'qituvchining o'zini o'zi anglashi o'qituvchining didaktik madaniyatining eng yuqori hodisasidir. Biz bo'lajak o'qituvchilarning didaktik madaniyatining rivojlanish darajasini aniqladik: intuitiv-amaliy (takrorlash), qisman modellashtirish (talqin qilish) va tizim modellashtirish (ijodiy).<sup>4</sup>

Bo'lajak o'qituvchilarning didaktik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi-bu ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan va maqsadlar, funktsiyalar, printsiplar, mazmun, usullar, vositalar va o'qitish bosqichlari to'plami bilan ifodalangan yaxlit didaktik tizim bo'lib, uni

<sup>3</sup> Г.М. Криницкая. Технология развития дидактической культуры учителя в процессе повышения квалификации./ Г.М. Криницкая// ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ.-2010-№3-С. 53-57

<sup>4</sup> Дидактическая культура преподавателя: Дидактический модуль.-М.: Центрортрудототранс,2005

amalga oshirish belgilangan mezonlarga va didaktikaning rivojlanish darajalariga javob berish bilan berilgan natijalarga erishishga olib keluvchi madaniyatdir. Bo'lajak o'qituvchini o'qitishning yetakchi usullari va shakllari uning didaktik madaniyatini rivojlantirishga va o'zini o'zi tahlil qilish, muammolarni hal qilish, tadqiq qilish, loyihalash, aks ettirish va boshqalar bo'yicha faol bilim faoliyatiga kiritish orqali mavjud bilim va ko'nikmalarni tashxislashga qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning didaktik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni va shakllari ta'lim sohasidagi faoliyat olib boruvchi o'qituvchining didaktik madaniyatining maqsadlari va tuzilishiga muvofiq belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchining didaktik madaniyatining darajasiga qarab, ba'zi hollarda — bilimdagi bo'shliqlarni bartaraf etish; boshqalarida — amalda o'rganilganlarni qo'llash, muammo ustida ishlash; ba'zi hollarda — master - klass, ijodiy laboratoriya, stajirovka jarayonini boshqarishni belgilash mumkin. O'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'z ishlarining samaradorligini tahlil qiladilar va o'quv, kognitiv, ijodiy, tadqiqot faoliyatiga faol qo'shilish zarurligini anglaydilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik OTMda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy bilimlarni tushunadigan, kasbiy va umumiy madaniy kompetentsiyalar, shu jumladan didaktik madaniyat asoslari haqida bilimlarda ega bo'ladilar. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, pedagogik OTMlarda ta'lim jarayonida har qanday o'qituvchi uchun zarur sanalgan - didaktik madaniyat asoslarini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim, shunda ushbu kontsepsiyaning nazariy va uslubiy asoslari, amaliyotga yo'naltirilgan vazifalari ushbu shaxsiy sifatning zarurligi va rivojlanishini tushunishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning didaktik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi tushunchasi o'qituvchining kasbiy madaniyatining bir qismi sanaladi, kasbiy tayyorgarlik davrida shakllanadi, kasbiy faoliyatning barcha bosqichlarida rivojlanadi va takomillashadi. Bo'lajak o'qituvchining didaktik madaniyatining asosini qadriyatlar, umumiy-kasbiy, umumiy madaniy kompetentsiyalar to'plami, o'z-o'zini rivojlantirish salohiyati, ta'limning didaktik tamoyillariga muvofiq pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonlari tashkil etadi. Shu asosda har bir bo'lajak zamonaviy mutaxassis mustaqil ravishda ta'lim olishga va o'rganishga shunday tayyorlanishlari kerakki, ular nafaqat hozirgi mavjud texnika va texnologiyani bilishi, balki didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasini ham mukammal va samarali o'zlashtira olishlari lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarda didaktik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalarini shakllantirish va rivojlantirib borish alohida pedagogik vazifa hisoblanadi hamda bu vazifani amalga oshirish uchun maxsus metodikalar ishlab chiqish va takomillashtirish lozim.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'jallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni
2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli prezident farmoni. Toshkent. 8 noyabr 2019 yil.
3. Podzolkov V. G. Didaktik tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy va pedagogik shakllanishining omili sifatida. Tula, 1997 yil

4. Дидактическая культура преподавателя: Дидактический модуль.-М.: Центрортрудототранс,2005
5. М.П.Тырина. Структура и функция дидактической культуры педагога./М.П.Тырина// Образования и общество.-2007
6. Г.М. Криницкая. Технология развития дидактической культуры учителя в процессе повышения квалификации./ Г.М. Криницкая// ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ.-2010
7. R.V.Yarmatov. Bo`lajak o`qituvchilarni tarbiyalashda pedtexnologiyalardan foydalanishning ba`zi masalalari. Фалсафа ва ҳуқуқ журналы –Тошкент, 2011. -№ 3.
8. R.V.Yarmatov. Bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarning o`rni. XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari.Davriy to`plam.-Toshkent, 2018.-№ 2.

